

OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA TALABA-QIZLARNING TADBIRKORLIK KOMPETENSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH

Sharipova Guzal Sodiqovna

*Alfraganus universiteti Pedagogika va
Psixologiya kafedrasi PhD, dotsenti*

Annotatsiya: Mazkur maqolada respublikamiz oliy ta'lim muassasalarida Talaba-qizlarning tadbirkorlik kompetensiyalarini takomillashtirishning ilmiy jihatlari yoritib berilgan.

Annotatsiya: В данной статье описаны научные аспекты повышения предпринимательских компетенций студенток высших учебных заведений нашей республики..

Resume: This article describes the scientific aspects of improving the entrepreneurial competencies of female students in the higher educational institutions of our republic.

Kalit so'zalar: kompetensiya, kommunikativ kompetensiya, axborot bilan ishlash kompetensiyasi, shaxs sifatida o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasi, ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi, umummadaniy kompetensiyalar tadbirkorlik faoliyati, hunarmandchilik, texnologiya, davlat ta'lim standartlari.

Ключевые слова: компетентность, коммуникативная компетентность, компетентность обработки информации, компетентность саморазвития как личности, компетентность социально-активной гражданственности, общекультурные компетенции, предпринимательская деятельность, ремесла, технологии, государственные образовательные стандарты.

Keywords: competence, communicative competence, information processing competence, self-development competence as a person, socially active citizenship competence, general cultural competences, entrepreneurial activity, crafts, technology, state education standards.

O'zbekistonda jadal ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar sharoitida hunarmandchilikni yanada rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston xalqlarining boy madaniy merosi va tarixiy an'alarini to'liq saqlab qolish, milliy hunarmandchilik, xalq badiiy va amaliy san'atini yanada rivojlantirish, narmandchilik faoliyati bilan shug'ullanuvchi fuqarolarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash aholi bandligini ta'minlash uchun hunarmandchilik ishlab chiqarishini texnik jihatdan ta'minlashni o'stirish, hunarmandlarni kasbiy tayyorlash tizimini takomillashtirish, ularni moddiy-texnik, moliyaviy resurslar bilan ta'minlashni tartibga solish, hunarmandchilik mahsulotlari sifatini bozor talabiga muvofiq oshirish va eksportini ko'paytirish,

hunarmandchilik faoliyatida tadbirkorlikdan foydalanish kabi muammolarni hal etish ushbu sohani ilmiy tadqiq etish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 2 fevraldagi "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5325-son farmoniga muvofiq, og'ir ijtimoiy holatdagi xotin-qizlarni, ayniqsa, nogironligi bor ayollarni qo'llab-quvvatlash, ularning bandligini ta'minlash, ular orasida oilaviy va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan takliflari O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasining 2018 yil 1-yarim yilligi uchun mo'ljallangan ish rejasiga binoan amaliyotga joriy etilgan. Natijada nogironligi bor ayollarni qo'llab-quvvatlash va ularning bandligini ta'minlashga qaratilgan keng ma'nodagi ishlar amalga oshirilgan.

Xotin-qizlarning innovatsion g'oyalari, loyihalari va ishlanmalarini ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etishda ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, fan-ta'lim va iqtisodiyotning turli tarmoqlarida mehnat qilayotgan xotin-qizlar tomonidan amalga oshirilayotgan ishlarning samaradorligini oshirishga qaratilgan takliflardan O'zbekiston Yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashining 2019 yil noyabr-dekabr oylari uchun mo'ljallangan ish rejasining yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar dasturining 5-bo'lim, 25-bandi O'zbekiston Yoshlar ittifoqi tizimida gender tenglikni ta'minlash hamda "Qizlar ovozi" forumini tashkil etishda foydalanilgan. Natijada fan, ta'lim va ishlab chiqarish integraiyasini ta'minlashning metodologik asoslari takomillashgan.

Talaba-qizlarning tadbirkorlik kompetensiyalarini takomillashtirish asosida talaba-qizlarda mustaqillik, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lish, tashabbuskorlik, mediaresurslar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan o'z faoliyatida oqilona foydalana olish, ongli ravishda kasb-hunar tanlash, sog'lom raqobat hamda umummadaniy ko'nikmalarini shakllantiradi.

Tayanch kompetensiyalar:

Kommunikativ kompetensiya;

Axborot bilan ishlash kompetensiyasi;

Shaxs sifatida o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasi;

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi;

Umummadaniy kompetensiyalar;

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasiga bo'linadi.

Inson o'z hayotida shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy va kasbiy munosabatlarga kirishishi, jamiyatda o'z o'rnini egallashi, duch keladigan muammolarning yechimini hal etishi, eng muhimi, o'z sohasi, kasbi bo'yicha raqobatbardosh bo'lishi uchun zarur bo'lgan tayanch kompetensiyalarga ega bo'lishi lozim. Bundan tashqari, ta'limda har bir o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida o'quvchilarda, shu fanning o'ziga xosligi,

mazmunidan kelib chiqqan holda, sohaga tegishli xususiy kompetensiyalar ham shakllantiriladi.

Xalq hunarmandchiligi sohasidagi kashtachilik san'ati va ta'limining rivojlanish jarayoni mamlakatimizning ijtimoiy- iqtisodiy va siyosiy rivojlanishi bilan chambarchas bog'liq. Sobiq sho'rolar hokimiyati davrida kashtachilik sohasi to'laligicha tugatib yuborildi. Bu jarayon natijasida jamiyatda yuz bergan ijtimoiy siyosiy o'zgarishlar amaliy san'atning bu turini o'n yillar davomida iqtisodiy va moddiy manbalardan mahrum qildi. Kashtachilik san'ati bilan "uzoq vaqtlar davomida, deyarli hech kim qiziqmagan, zero san'atning bu turiga ahamiyat qaratishga munosib bo'lmagan, tub-tubigacha feodalizm san'ati sifatida qaralgan".

XX asrning 20-30 yillarida xalq hunarmandchiligining ayrim sohalari, jumladan, hunarmandlik, kashtachilik, zardo'zlik, naqshsozlik, ganchkorlik an'analari saqlanib qolingan, biroq bunda eskirgan asbob-uskunalar va jihozlar bilan eski namunalar va eskicha usullardan foydalanib ish yuritilgan bo'lsada, bu artellarning faoliyati kashtachilik san'ati yo'nalishlari, metodlarini belgilab berishga qodir emas" edi. Xalq hunarmandchiligining murakkab sanaladigan kashtachilik va uning yo'nalishlari hunarmandlarni jalb etish va bu ularning shogirdlarga (o'quvchilarga) kashtachilikning sir-sinoatlari, kasbiy mahorat metodlarini o'rgatishlari natijasidagina saqlab qolindi. Kashtachilik san'atining mazkur davri tadqiqotchilari qayd etishlaricha, "kashtachilik hunarmandchiligining an'analari unchalik ko'p sonli bo'lmagan hunarmandlarning sharofoti bilan saqlab qolindi, biroq original g'oyalarni ilgar surish va rivojlantirish uchun uchun malakali mutaxassislar yetishmas edi".

Xalq hunarmandchiligi san'ati bilan shug'ullangan san'atshunoslar XX asrning 50 yillarigacha sobiq sho'rolar davlatida kashtachilik san'atining rivojlanmaganli, lekin halq hunarmandchiligining boshqa yo'nalishlari rivojlanganligini ta'kidlaydilar.

XX asrning 50-yillariga kelib, yirik shaharlarda kashtachilik fabrikalari ochildi. Bu davrning o'zida an'anaviy kashtachilik hunarmandchiligiga bo'lgan qiziqish ham orta boshladi. Ana shu vaqtdan boshlab S.S.Bulatov, R.Xasanov, dots.nt R.Shobaratov, Q.Qosimov, A.Turdialiev, O.Xudayorova va boshqalar xalq badiiy hunarmandchiligining kashtachilik sohasi uchun mutaxassislar tayyorlash muammolarini hal etishga bag'ishlangan tadqiqot ishlar olib borganlar.

Jumladan, professor Bulatov S.S. o'zining "O'zbek xalq amaliy bezak san'ati" metodik qo'llanmasida xalq amaliy bezak san'ati turlari bo'yicha mashg'ulotlarni tashkil etishga hamda o'tkazishga bo'lgan shart sharoitlar, o'qitishning nazariy-metodik asoslari hamda dasturlar bayon etilgan, atamalarning izohli lug'ati berilgan. Shuningdek, "Ganchkorlik" qo'llanmasida esa o'zbek xalq dekarativ amaliy san'atining eng qadimgi guruh bilan ganch o'ymakorligiga bag'ishlanadi. Unda ganchkorlik san'ati tarixi rivojlanishi va o'z kasbini yoshlarga o'rgatish usullari bayon etilgan. Shobaratovning "Kompozitsiya" o'quv qo'llanmasi amaliy san'atni

o'qitishning o'quv jarayonini tashkil qilish, mashg'ulotlar kompozitsiya-larining maqsad va vazifalari ko'rsatib o'tilgan. O'quv-qo'llanma boshqa mutaxassislik fanlari bilan uyg'unlashgan holda o'quvchilarning olgan bilimlarini keyingisi bilan to'ldirib borishda yordam beradi.

Professor R.Xasanov "Maktabda tasviriy san'at o'qitish metodikasi" nomli darsligida tasviriy va amaliy san'atning o'qitish metodlarida kerak bo'ladigan barcha nazariy va metodik bilimlar berilgan. R. Xasanov "Boshlang'ich sinflarda naqsh chizish metodikasi" nomli o'quv qo'llanmasida naqsh chizishning o'ziga xos xususiyatlari, ranglar va ularni ishlatish, ranglarining xususiyatlari, naqsh kompozitsiyalari haqida yetarlicha ma'lumotlar beriladi.

Q.Qosimov "Naqqoshlik" nomli monografik asarida naqqoshlik san'atining taraqqiyoti, naqqoshlik to'garagining mazmuni uchun o'qitishning nazariy asoslari naqsh solishga o'rgatish metodikasi bayon etilgan.

Tatqiqotchilarning ta'kidlashlaricha, kadrlar bilan tizimli ravishda (umumta'lim va kasbga tayyorlash maktablarda kasbga yo'naltirishdan boshlab hunarmandchilik korxonalaridagi bevosita ijrochilar – ustalarning malakasini oshirishga bag'ishlangan tadbirlargacha) ish olib borish va bu tizimga kasbiy-texnik va badiiy o'rta ta'lim muassasalarida o'qitish jarayonini qamrab olgan holda ish olib borish samarali natijalar beradi.

XX asrning 60-yillari o'rtalarida Davlat tarixiy muzeylari xodimlari hunarmandlar bilan maqsadli ravishda faol ish olib borganlar. ma'ruzalar o'qilgan, hunarmandlar uchun muzey fondlari ochib berilgan, zamonaviy kashtachilik mahsulotlari xarid qilina boshlangan.

XX asrning 70-yillarida xalq hunarmandchiligi ta'limining eng asosiy kamchiligi kashtachilik badiiy tarbiyasini inqilobgacha davrda mavjud bo'lgan usullarni yoki namunalarni takrorlash, u yoxud bu ko'rinishda ularni zamon talablariga moslashtirishdan iborat edi.

Xalq hunarmandchiligi korxonalarini uchun mutaxassislar tayyorlashning holati "murakkab, zero, hech qayerda mutaxassislar – ishlab chiqarish tashkilotchilari, badiiy rahbarlar va eng asosiysi, umumiy o'rta ta'lim muassasalarini uchun o'qituvchilar tayyorlanmas edi. Mavjud bo'lgan Oliy ta'lim muassasalarining ishlab chiqarish korxonalaridan ayro ish olib borishlari, bu vazifalarning ular zimmasidagi topshiriqlar sirasiga kirmaganligi sababli mazkur muammolarni hal etish imkoniyatiga ega emas edilar".

Mustaqillikdan keyin kashtachilik san'atining yo'qolib borayotgan qadriyatlarini asta-sekin tiklana boshlandi, ammo an'analarning ibtidosiga qaytish zaruriyatini faqatgina anglash, tushuna boshlashning o'zi yetarli emas edi. Bu davrda kashtachilik san'ati sezilarli darajada o'sdi. Kashtachilik san'ati san'at asarlarining keng doirasini - yirik asarlardan, masalan, matolarga va gilamlarga ishlov boshlab (u yoki bu

materialdan foydalanib turli shakl va usullarni qoʻllangan holda) oddiy, biroq nafis dastrumolcha yoki sodda yaratilgan ijod namunalarigacha qamrab olinadi

Kashtachilik sanʼatiga oid adabiyotlarning ayanchli holati XX asrning 80-yillarigacha ham davom etgan. Bu davrga kelib esa turli koʻrinishdagi adabiyotlarni, manbalarni: koʻrgazmalarning kataloglari, kashtachilik sohalariga bagʻishlangan albomlar, hunarmand ustalarning ish namunarini koʻpaytirish, darslik va oʻquv qoʻllanmalarini chop etish boshlandi. Maxsus adabiyotlar, manbalarning mavjud boʻlishi esa kashtachilik sanʼati sohasidagi kasbiy taʼlimning ajralmas qismi. Biroq sanʼatshunoslikka oid adabiyotlarning, kashtachilik sanʼati texnologiyalariga taalluqli koʻp sonli boʻlmagan kitoblarning, kashtachilik sanʼati kompozitsiyalariga doir darslik va oʻquv qoʻllanmalarining mavjudligiga qaramay, usta-hunarmandlarning ijodiy faoliyatlari miqyosini aniqlash imkoniyati mavjud emas edi. Kashtachilarni grafikaga oʻqitishda Madamin Berdiyevning 2005 yilda nashrdan chiqqan “Xalq hunarmandchiligi” kitobi muhim oʻrin tutdi. Kitob Oʻzbekiston hunarmandchilik sanʼat maktabida hunarmandchilikning turli sohalarini, jumladan, kashtachilik ishiga oʻrgatish, oʻqitish tajribasi asosida yaratilgan.

Kashtachilik taʼlimi mazmunini shakllantirishda, oʻziga xos noyob metodikaning yaratilishida “Kashtachilik ishi” nomli kitob muhim ahamiyat kasb etdi. Bu kitob XX asrning 80-yillarida kashtachilik ishi boʻyicha yaratilgan yagona darslik. Kitobda kashtachilik ishi texnologiyasiga oʻrgatishga doir sinchkovlik bilan ajratib olingan, tizimlashtirilgan, illustratsiyalashtirilgan oʻquv materialini bayon etilgan. Yaratilgan bu darslikning murakkab kashtachilik texnikasini amalga oshirish yoʻllarini tushunarli bayon etishning sifati boʻyicha biron bir muqobil analogi mavjud emas. Unda kashtachilik mahsulotlarini tayyorlash va ularga ishlov berish batafsil yoritilgan, qimmatbaho toshlarning xususiyatlari va tasnifi koʻrsatib oʻtilgan. Shuningdek bu kitobda kashtachilik mahsulotlarining asosini tashkil etuvchi matolar, qotishmalar, nomatol materiallar haqida maʼlumotlar mavjud. Qoʻllanmada yangi kavsharlash qotishmalari, qimmatbaho matolarning sinab koʻrilganligi, kashtachilik mahsulotlariga ishlov berishning yangi usullari haqida ham maʼlumot berilgan.

Mustaqillikkacha boʻlgan davrda matolarga badiiy ishlov berish va kashtachilik sanʼati bilan bogʻliq hunarmandchilik korxonalarida ishlaydigan mutaxassislar tayyorlash turli toifadagi taʼlim muassasa amalga oshirilgan. Kasb-hunar taʼlim muassasalari yirik oʻunarmanchilik korxonalarini bilan bevosita aloqada boʻlib, bu oʻquv muassasalari kashtachilik mahsulotlarini ommaviy ishlab chiqarish uchun ustalar tayyorlagan. Kasbiy-texnik maktablar va kasbiy texnika taʼlim muassasalari muayyan mutaxassislik boʻyicha ustalar (hunarmand -montajchilar, hunarmand-filigran (filigran – kashtachilik buyumiga juda nafis ishlov berish), graverchi) malakasini bergan va tanlangan mutaxassislik sohasidagi ish darajasidan kelib chiqib taʼlim ikki yildan toʻrt yilgacha davom etgan.

Bu davrda mamlaktimizda faqatgina Toshkent badiiy kasbiy-texnika bilim yurti (hozirgi Benkov nomidagi respublika rassomchilik kolleji)da kam sonli mutaxassislar tayyorlangan bo‘lib, mazkur ta‘lim muassasasida o‘quvchilar hunarmand, shtamplar bo‘yicha graver kabi mutaxassisliklarini egallaganlar.

Ushbu ta‘lim muassasasida boshlangich kashtachilik kasbiy ta‘limini amalga oshirish sohasidagi umumkasbiy va maxsus fanlarni o‘qitishda muayyan tajriba jamlangan. O‘quv ustaxonalarida matolga badiiy ishlov berishning turli usullarini o‘zlashtirishga alohida e‘tibor qaratilgan. Kashtachilik ishi asoslariga oid bilimlarni o‘quvchilar kasbga yo‘naltiruvchi fanlar: mahorat, kashtachilik ishlab chiqarish texnologiyasi va materialshunoslik, kashtachilik mahsulotlari kompozitsiyasi bo‘yicha o‘tkazilgan mashg‘ulotlarda egallaganlar. Kasbiy-texnik a‘lim muassasasida yoshlar ishlab chiqarish faoliyatlarida zarur bo‘ladigan bilim va malakalarni egallashlari lozim bo‘lgani uchun ular o‘quv davrida o‘zlari kelajakda ishlaydigan korxonalarining faoliyati bilan ham tanishganlar. O‘quvchilar ishlab chiqarish amaliyotini o‘tash jarayonida ta‘lim muassasalarida egallagan bilim, ko‘nikma va malakalarini orttirib, takomillashtirib borganlar.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, ta‘lim tizimida amalga oshirilgan islohotlar tufayli hunarmandchilikka sohasi uchun kadrlar tayyorlaydigan bir necha kasb-hunar kollejlari tashkil etildi. Jumladan, xalq hunarmandchiligiga ixtisoslashgan kollejlari shular jumlasidandir. Oliy ta‘lim muassasalarida hunarmandchilikka ixtisoslashtirilgan yo‘nalishlar ochildi. Tashkil etilgan ushbu ta‘lim muassasalari o‘z mohiyatiga ko‘ra betakrordir, zero ular turli mutaxassislikka ega bo‘lgan hunarmandlarni yetishtirib chiqaradilar, ularni turli metodik yo‘nalishlar, turli texnologiyalarga yo‘naltiradilar. Hatto bir xil o‘quv rejasi asosida ta‘lim amalga oshiriladigan ta‘lim muassasalarida ham ishchi o‘quv dasturlari mahalliy xususiyatlarni hisobga olgan holda tuzib chiqilgan. Bular ta‘lim mazmuniga ko‘ra, turli xil bo‘lgan materiallar va matolar bilan ishlash, ipaklar bilan ishlash ijro texnikasi, kompozitsion yechimlar aks etgan maktablardir.

O‘quv rejasida o‘quv fanlari bir xil bo‘lgani bilan har bir ta‘lim muassasasi mahorat, kompozitsiya, materialshunoslik va kashtachilik ishi texnologiyasi kabilarni o‘qitishda o‘zlarining alohida tuzilgan dasturlari asosida ish olib boradilar. Bu ta‘lim muassasalarining eng muhim xususiyati. Zero kashta mahsulotlarini ishlab chiqarishning har bir an‘anaviy markazi mahsulotlarning kompozitsion tuzilishi, materiallar, mahsulot tayyorlashning texnologiyalari va texnik usullarini tanlash borasida cheklovlarga ega edi. Aynan shu hunarmand ustalarni tayyorlash va kompozitsiyalar ustida ish olib borishning asosini tashkil etadi. Har bir hududiy markazda kompozitsiyalar yagona tasvirni – shu hududda mavjud bo‘lgan an‘analar va yangiliklarning, zamonaviy tendensiyalar, kashtachilik san‘atining rivojlanishi, taraqqiy etishi bilan bog‘liq bo‘lgan tasvirni aks ettirgan.

Xususan, hozirgi usta-hunarmandlar tayyorlovchi kasb-hunar kollejlarda ta'lim an'analari nazariya va amaliyotning o'rganilishi eng avvalo nafis san'atni o'rganish orqali amalga oshiriladi. Amaliy fanlar bilan bir qatorda nazariy fanlarga: xalq badiiy hunarmandchiligi tarixi, san'atlar tarixi, metodlar tarixi va shu kabi yosh mutaxassislarda zaruriy badiiy dunyoqarashni shakllantiradigan fanlarni o'qitishga alohida e'tibor berilgan.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash kerak hunarmandchilik faoliyati turli zamonlarda turlicha rivojlangan va juda ko'p tazyiqlarga uchraganiga qaramasdan XXI asrgacha yetib keldi. Har qanday holatda ham o'zining yashovchanligini saqlab qoldi, bundan keyin ham mavjud bo'lishini inobatga olgan holda mazkur sohani kompleks ko'rib chiqib, chuqurroq o'rganish zarur. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, shuningdek, iqtisodiyotning norasmiy sektorini tadqiq etish ham hunarmandchilik faoliyatining iqtisodiy mohiyatini tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: “O'zbekiston”, 2016 y.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “2019 yilda mamlakatimizni rivojlantirishning eng muhim ustuvor vazifalari to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Parlamentga Murojaat-nomasi” 28 dekabr 2018 yil. Xalq so'zi.–Toshkent, 2018
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev “Umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 2018 yil 25 yanvardagi Farmoni. –Toshkent, 2018 y.
4. Bulatov S.S., Salimov S.S., Muxtorov A.T. Sherdor madrasasi bezaklarining sirli olami. - T. “Talkin” 2007.
5. Sharipova, G. S., & Madaminjonova, M. S. (2022, April). BASIC CONCEPT IN CLOTHES DESIGN. In International Scientific and Current Research Conferences (pp. 12-15).
6. Sharipova G.S. Ways and means of implementing the system of training teachers of technology in pedagogical universities //science, research, development philology. Internatsional conference-№5: 6.298-300.
7. Sadikovna, S. G., Kurbonova, B., Akhmedova, N., & Sulaymanova, S. (2020). FUNDAMENTALS OF PROFESSIONALISM DEVELOPMENT ON THE EXAMPLE OF PRACTICAL EXERCISES ON FORMING THE SKILLS AND SKILLS OF FUTURE TEACHERS. PalArch's Journal of Archaeology of Egypt/Egyptology, 17(6), 8894-8903.
8. Sharipova, G. S. (2022). DISTRIBUTION AND MODERNIZATION OF

ADVANCED PEDAGOGICAL PRACTICES IN THE LESSON PROCESS.
CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS, 3(06), 12-15.

9. Kamalova, G. A. (2022). WAYS TO ENSURE THE ACTIVE PARTICIPATION OF PARENTS IN THE EDUCATIONAL PROCESS IN PRESCHOOL EDUCATION. *Oriental Journal of Education*, 2(1), 8-15.

10. Sharipova G.S. Role national decorative elements in edicfting young generation //Eastern European Scientific journal. №3. – 2018. ISSN: 2199-7977. 6.90-94. \\\

11.Пласкина М. В. Понятие «технология обучения» в современной педагогике [Текст] // Педагогика: традиции и инновации: материалы V Междунар. науч. конф. (г. Челябинск, июнь 2014 г.). — Челябинск: Два комсомольца, 2014..

12. Гайназарова, Г. А. (2023). ИНДИВИДУАЛ ТАЪЛИМ-ТАЛАБАЛАРНИ КАСБИЙ ФАОЛИЯТГА ТАЙЁРЛАШНИНГ МУҲИМ ВОСИТАСИ СИФАТИДА. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 8(1), 36-40.

13. Ibraimov, X., & Gaynazarova, G. (2023). THE CONTENT OF PREPARING STUDENTS FOR PROFESSIONAL ACTIVITY IN THE PROCESS OF INDIVIDUAL EDUCATION. *Science and innovation*, 2(B12), 330-333.

14. Gaynazarova, G. A., Matnazarova, K. O., & Parpiyev, O. O. (2023). FACTORS AND METHODS OF PREPARING STUDENTS FOR PROFESSIONAL ACTIVITIES IN THE CONDITIONS OF INDIVIDUAL TRAINING. *Academia Repository*, 4(12), 131-135.